INGLIZ FILMONIMLARINING STRUKTUR-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Dilafruz Razzakberdiyevna Umarova
E-mail: dilafruz.umarova91@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3544-9962

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilidagi filmonimlarning struktur-grammatik xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikdagi yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Filmonimlarning sintaktik qurilishi, grammatik modellari hamda ularning nominativ, informativ va pragmatik funksiyalarni amalga oshirishdagi o'rni yoritiladi va turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan struktur tasniflar qiyosiy tahlil qilinib, ingliz filmonimlarining eng mahsuldor grammatik modellari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: filmonim, struktur tipologiya, grammatik model, nominal konstruksiya, sintaktik tasnif, film nomi.

STRUCTURAL AND GRAMMATICAL FEATURES OF ENGLISH FILM TITLES

Dilafruz Razzakberdiyevna Umarova
E-mail: dilafruz.umarova91@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3544-9962

Abstract. This article examines the structural and grammatical features of English film titles from the perspective of contemporary linguistic approaches. It analyzes the syntactic organization and grammatical patterns of film titles, as well as their role in realizing nominative, informative, and pragmatic functions. In addition, the structural classifications proposed by various scholars are comparatively analyzed in order to identify the most productive grammatical models of English film titles.

Keywords: film title, structural typology, grammatical model, nominal construction, syntactic classification, film title.

СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ФИЛЬМОНИМОВ

Умарова Дилафруз Раззакбердиевна
E-mail: dilafruz.umarova91@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-3544-9962

Аннотация. В статье структурно-грамматические особенности англоязычных фильмонимов рассматриваются с позиций современных лингвистических подходов. Анализируются синтаксическая организация и грамматические модели фильмонимов, а также их роль в реализации номинативной, информативной и прагматической функций. Кроме того, проводится сравнительный анализ структурных классификаций, предложенных различными исследователями, что позволяет определить наиболее продуктивные грамматические модели англоязычных фильмонимов.

Ключевые слова: фильмоним, структурная типология, грамматическая модель, номинальная конструкция, синтаксическая классификация, название фильма.

Filmonimlar onomastik birliklarning alohida guruhi bo‘lib, ular nafaqat filmni identifikatsiya qilish, balki uning mazmuni, g‘oyasi va emotsional yo‘nalishini ixcham shaklda ifodalash vazifasini ham bajaradi, shu bois film nomining grammatik tuzilishi uning nominativ, informativ va pragmatik funksiyalarini amalga oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Struktur modelning to‘g‘ri tanlanishi filmonimning esda qoluvchanligi, semantik sig‘imi va tomoshabinga ko‘rsatadigan ta’sirini bevosita belgilaydigan omillardan biri bo’lib xizmat qiladi [1]. Filmonimlarning lingvistik tabiati yuzasidan ikki asosiy yondashuv mavjud bo’lib ularning birinchisiga ko‘ra, film nomi badiiy asar sarlavhasining alohida turi sifatida qaralsa, ikkinchi yondashuvda filmonimni atoqli otlarning mustaqil guruhi sifatida talqin qilinadi. Taniqli rus tilshunos tadqiqotchisi Y.N.Podemova kino asar nomlarini ideonimlarning bir turi sifatida baholab, ular uchun *“filmonim”* terminini ilmiy muomalaga kiritgan hamda uning izdoshlaridan bo’lgan N.V.Podolskaya esa onimni obyektni individuallashtirish va identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida izohlaydi [3]. Superanskayaning tarifiga ko’ra ideonimlar ma’naviy madaniyat mahsullarining (qo‘shiqlar, raqslar, ertaklar va boshqa ijod mahsullarining) nomlari bo‘lib, ular o‘zlari paydo bo‘lgan madaniy muhitdan tashqarida ham mustaqil nom sifatida qo‘llanadi. Filmonimlar ham ma’lum bir xalqning madaniyat maxsuli hisoblangani uchun ularni ideonimlar qatorida tahlil qilish mumkinligini ko’rsatadi [4; 84]. Struktur nuqtayi nazardan filmonimlar kichik hajmli matn sifatida ham tavsiflanadi, jumladan E.S.Kubryakova bunday matnlarning shakliy va semantik mustaqilligi, mavzuviy aniqligi hamda kommunikativ tugallanganligini asosiy belgilar sifatida ko‘rsatadi ya’ni kichik hajmli matnning alohida kommunikativ birlik sifatida muayyan mavzu va mazmunni nisbatan yakunlangan shaklda ifodalashi nazarda tutiladi bu esa shuni anglatadiki filmonim hajman qisqa bo‘lsa-da, u filmning qahramoni, voqeasi, makoni

yoki asosiy g'oyasi haqida tomoshabinda dastlabki tasavvur hosil qila oladigan semantik yaxlitlikka ega bo'lgan birlikdir. N.V.Inozemtseva esa film nomini sintaktik jihatdan gapga tenglashtirib, uni matnning kommunikativ birligi sifatida talqin qiladi [5]. Tadqiqotchining mazkur qarashi sarlavha faqat nomlash vazifasini bajaruvchi alohida so'z yoki so'z birikmasi bo'lishi bilan birga muayyan axborotni uzatishga yo'naltirilgan matniy birlik ekanini ham anglatadi. Filmonim shaklan bir so'z, so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida ifodalansa ham, u film mazmunining muhim jihatini ajratib ko'rsatadi, auditoriyaga muayyan xabar yetkazadi hamda tomoshabinda taxmin, kutish va emotsional munosabatni shakllantiradi. Shu sababli filmonimni matnning chegaraviy kommunikativ birligi sifatida talqin qilish mumkin.

Filmonimlarning struktur tipologiyasi yuzasidan olib borilgan bir qancha salmoqli tadqiqotlar orasida O.I.Ulanovich va E.F.Mikulina tomonidan olib borilgan tadqiqot alohida ahamiyat kasb etadi. Mualliflar inglizcha filmonimlar asosida ularni sakkizta struktur modelga ajratadilar:

bir komponentli filmonimlar;
nominal konstruksiyalar;
koordinativ nominal konstruksiyalar;
kengaygan nominal konstruksiyalar;
fe'lli konstruksiyalar;
ikki tarkibli gaplar;
eksplikativ konstruksiyalar;
fragmentar (elliptik) konstruksiyalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, nominal konstruksiyalar eng mahsuldor model bo'lib, ushbu model doirasida Adj + N, Participle + N, N + N, N + of + N hamda Proper Noun (+N) kabi grammatik modellar ajratilgan. Mualliflar aynan nominal konstruksiya filmonimning ixchamligi, oson idrok etilishi, esda qoluvchanligi va informativligini ta'minlovchi eng samarali struktur model ekanini ta'kidlaydilar [6; 403-408].

D.I.Tsirkun esa filmonimlarning struktur tasnifini yanada umumlashtirib, ularni uch asosiy guruh bo'lmish filmonim-so'zlar, filmonim-so'z birikmalari va filmonim-gaplar kabi turlarga ajratadi. Tadqiqotchining fikricha, filmonim-so'zlar odatda bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, filmning markaziy qahramoni yoki asosiy konseptini nomlaydi ammo ularning informativligi nisbatan cheklangan bo'ladi deb hisoblaydi. Eng mahsuldor guruh filmonim-so'z birikmalari bo'lib, ular asosan grammatik yadrosi ot bilan ifodalangan nominal konstruksiyalar orqali shakllanadi. Mazkur konstruksiyalarda ot bosh komponent vazifasini bajarib, sifat, sifatdosh, boshqa ot, son, qaratqich shakli yoki predlogli birikma yordamida kengayadi. Ingliz filmonimlarida

Adj + N, Participle + N, N + N, N + of + N, N's + N hamda son + N kabi struktur modellar faol qo'llanadi. Gap shaklidagi filmonimlar esa sodda va murakkab gaplarga, grammatik asosining ifodalanishiga ko'ra esa to'liq va to'liqsiz gaplarga ajratiladi. Buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalangan filmonimlar kuchli pragmatik ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi [7; 161-167].

N.B. Ivanytska va N.L. Ivanytska 2019–2021-yillarda ekranga chiqarilgan 300 ta inglizcha filmonim asosida ularning struktur tipologiyasini tadqiq etganlar. Mualliflar film nomlarini ot yoki otli birikma shaklidagi filmonimlar, sifat va ot asosidagi atributiv-nominal konstruksiyalar, fe'lli birikmalar, sodda gaplar hamda murakkab konstruksiyalarga ajratadilar. Ular keltirgan statistik natijalarga ko'ra, Adj + N modelidagi atributiv-nominal filmonimlar eng mahsuldor struktur tur sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur tasnif ingliz filmonimlarining struktur-grammatik xususiyatlarini belgilashda nazariy asoslardan biri sifatida xizmat qiladi [2; 91-94]. Turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan tasniflar qiyoslanganda, ularning barchasi filmonimlarning asosiy struktur yadrosi nominal konstruksiyalar ekanini tasdiqlaydi va farqlar esa tasnifning batafsillik darajasida namoyon bo'ladi. Masalan, Ulanovich va Mikulina koordinativ, eksplikativ hamda elliptik konstruksiyalarni alohida guruh sifatida ajratgan bo'lsa, Tsirkun ularni filmonim-so'z birikmalari yoki filmonim-gaplar tarkibida ko'rib chiqadi hamda Ivanytska sintaktik tasnifni beshta yirik struktur model doirasida umumlashtiradi. Shunday qilib, filmonimlarning struktur-grammatik tizimi quyidagi asosiy modellarni qamrab oladi:

N – *Titanic, Inferno, Arrival, Wonder, Papillon, Shaft*

NP – *The Mummy, The Courier, The Snowman, The Circle*

Adj + N – *Black Panther, Green Book, A Quiet Place, The Dark Tower, Game Night*

N + N – *Tower Heist, Gemini Man, Wonder Wheel*

N + of + N – *City of Lies, Wrath of Man, Legend of Ron Burgundy*

N's + N – *The King's Speech, The King's Daughter, Ender's Game, Schindler's List*

Verb Phrase – *Look Away, Meet the Parents, Catch Me If You Can, Thank You for Your Service*

Sentence – *A Star Is Born, I Feel Pretty, I Kill Giants, We Summon the Darkness, Now You See Me, What Men Want*

Title: Subtitle – *Maze Runner: The Death Cure, Jumanji: Welcome to the Jungle, Pirates of the Caribbean: Dead Man's Chest*

Tahlil natijalari zamonaviy ingliz filmonimlari tizimida nominal konstruksiyalar eng mahsuldor va faol grammatik model ekanini ko‘rsatadi, bunday tuzilmalarning ustunligi, avvalo, otlarning predmet, shaxs, hodisa va konseptlarni aniq nomlash imkoniyatining yuqoriligi bilan belgilanadi. Atributiv komponentlar esa film mazmuniga oid muhim belgilarni ixcham shaklda ifodalab, nomning semantik aniqligi va obrazliligini kuchaytiradi. Nominal konstruksiyalarning struktur jihatdan qisqa, mazmunan sig‘imli bo‘lishi film nomining tez idrok etilishi, auditoriya e’tiborini jalb qilishi va xotirada uzoq saqlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur grammatik model filmonimlarning nafaqat nominativ va informativ, balki reklama, pragmatik hamda estetik funksiyalarini amalga oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. – 3rd ed. – London: Arnold, 2004.
2. Ivanytska N.B., Ivanytska N. L. Structural Typology of English Film Titles: Contemporary Trends // International Scientific Conference Proceedings. – Częstochowa, Republic of Poland, April 5–6, 2023. – P. 91–94.
3. Аникина Т.В. Структурные особенности англоязычных фильмонимов // Вестник филологических наук. – 2023. – Т. 3. – № 7. – С. 161–167.
4. Мадиева Г.Б., Супрун В. И. Теория и практика ономастики. – Алматы–Волгоград, 2015. – С. 199.
5. Ревина Ю.Н. Особенности японских фильмонимов: структурный аспект // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2017. – № 6 (72). – Ч. 3. – С. 144–146.
6. Уланович О.И., Микулина Е. Ф. Структура и семантика англоязычных кинозаголовков: типологические черты // Материалы научной конференции. – Минск : Белорусский государственный университет. – С. 403–408.
7. Цыркун Д.И. Лингвистические особенности наименований английских и американских кинофильмов // Вестник филологических наук. – 2023. – Т. 3. – № 7. – С. 161–166.
8. IMDb. Internet Movie Database [Электронный ресурс]. – URL: https://www.imdb.com/